

QIZAMIQ KASALLIGI

Sadullayeva Zulayho Alisherovna

Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi,

“Terapiya” kafedrası bosh o’qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15210656>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ko’p insonlarda uchrab kelayotgan qizamiq kasalli, uning etimologiyasi, kasallik klinikasi, yuqush yo’llari, uning alomatlari va davolash usullari haqida ma’lumotlar keltirib o’tildi.

Kalit so’zlar: Qizamiq, etimologiya, simptom, viruslar, Pigmentatsiya davri, tashxis, davolash.

MEASLES

Abstract. This article cites information on measles, its etymology, disease clinic, transmission routes, its symptoms, and treatment, which are common in many people.

Keywords: Measles, etymology, simptom, viruses, pigmentation period, diagnosis, treatment.

БОЛЕЗНЬ КОРЬ

Аннотация. В статье представлена информация о кори — заболевании, поражающем многих людей, его этимологии, клинических проявлениях, путях передачи, симптомах и методах лечения.

Ключевые слова: Корь, этимология, симптомы, вирусы, период пигментации, диагностика, лечение.

Qizamiq - havo tomchi yo’li orqali yuqadigan o’tkir yuqumli kasallik bo’lib, umumiy zaharlanish tana haroratining ko’tarilishi, konyuktivit, Nafas yo’llari yallig’lanishi, Terida o’ziga xos bosqichma-bosqich, dog’li papulyoz toshmalar toshishi bilan harakterlanadi.

Qizamiq kasalligining etiologiyasi:

Qizamiq virusi –paramiksoviruslar oilasiga mansub, tashqi muxitga chidamsiz, odam organizmidan tashqarida tez halok bo’ladi.

Qizamiq kasalligining klinikasi 4 ta davrdan iborat:

► Inkubatsion davri o’rtacha – 9-11 kundan iborat. Emlangan yoki qizamiqqa qarshi immunoglobulin olganlarda ushbu davr 21 kungacha cho’zilishi mumkin. Boshqalarda eng uzoq davri 17 kunga teng. Ushbu davrni eng qisqa vaqti 7 kunga teng.

► Kataral davr – 3-4 kun davom etadi, 5-7 kungacha cho'zilishi mumkin yoki qisqarishi ham mumkin.

► Toshma davri – 3-4 kun davom etadi.

► Pigmentatsiya davri – 2 -4 haftagacha yoki undan uzoqroq ham davom etishi mumkin.



Prodromal davr:

3-5 kungacha kataral belgilar bilan harakterlanadi:

- konyuktivit,
- rinit,
- yo'tal,
- yuqori harorat 38°C,
- og'iz shilliq qavat giperemiyasi,
- tomoq giperemiyasi,
- lunjlar giperemiyasi.

Kataral davri:

Ushbu davr asosan utkir boshlanib kasallarda tana xaroratining 38 - 39°C gacha ko'tarilishi, kataral belgilar paydo bo'lishi bilan boshlanadi.

- Burundan quyuq shilliqli so'ng (2 lamchi infeksiya qo'shilsa) shilliq-yiringli ajralmalar ajraladi, ovozi bo'g'iladi.
- Kasallik boshida quruq yo'tal kuzatiladi, krup sindromi paydo bo'lishi mumkin.

► Yorug'likka qaray olmaslik (ko'z achishishi), ko'zdan yosh kelishi, ko'z tomirlari in'eksiyasi va kon'yunktivaning qizarishi, qovoqlarning shishishi kuzatiladi.

Yuqish yo'llari:

- Kasallik havo-tomchi yo'li orqali yuqadi
- Qizamiq bilan mavsumiy ravishda — okytabrdan aprel oyigacha kasallanish — odamlar bu mavsumda ko'proq yopiq xonalarda to'planib o'tirishlari bilan bog'liq.
- Bolalarning infeksiyalanishi ko'pincha bog'chalarda sodir bo'ladi.
- Umumiy ravishda kasallangan bemor atrofdagilar uchun 7-10 kun davomida xavfli sanaladi. Vaksina olmagan kishilar bemor bilan yaqin aloqada bo'lishda infeksiyalanish ehtimoli deyarli 100% ni tashkil etadi.
- Qo'zga'tuvchi shuningdek havo yo'llari orqali uzoq masofalarga tarqalishi mumkin, masalan, zinapoyalar, ko'p qavatli uylarda shamollatish shaxtlari orqali va hokazo.

Qizamiqqa xos simptom:

1. Belskiy-Filatov-Koplik dog'i.
2. Yumshoq va qattiq tanglayda enantema.

Qizamiqda shilliq qavatlar holati:



Toshma toshish davri

- Toshma davri kasallikning 4-5-kunidan boshlanadi. Bemor terisiga makulo-papulez toshma etapli toshadi.
- Toshma davrida tana harorati yuqori 39-40°Sgacha ko'tariladi, kataral simptomlar kuchayadi.
- Bemorning umumiy ahvoli og'irlashadi, bezovtalanish, alaxlash, uyquchanlik, burundan qon ketishi kuzatilishi mumkin.
- Bemorning tashqi qiyofasi xarakterli — yuzi kerkkan (qovoqlari, lablari, burni shishgan), ko'zlari qizargan, burnidan ko'p miqdorda shilliq ajraladi.



Pigmentatsiya davri:

- ▶ Pigmentatsiya davri kasallikning 6-7-kunidan boshlanadi.
- ▶ Qizamiq toshmasining rangi soʻnib, qoramtir jigar rang tusiga kiradi. Toshma etapli qay tartibda paydo boʻlgan boʻlsa shu tartibda soʻnib boradi.
- ▶ Toshma koʻp toshgan joylarda kepaksimon qipiqplanish kuzatiladi.
- ▶ Tana xarorati asta-sekin tushadi.
- ▶ Kataral simptomlar asta-sekin kamayib, yoʻqoladi.
- ▶ Umumiy ahvoli yaxshilanadi.
- ▶ Pigmentatsiya davrida asteniya va anergiya holati uzoq vaqt saqlanib turadi.

Kattalarda qizamiqning kechish xususiyatlari:

- ▶ Kasallik oʻrta ogʻir va ogʻir shakllarda kechadi.
- ▶ Kuchli intoksikatsiya bilan kechadi.
- ▶ Yoʻtal, konʻyunktivit kuchli rivojlangan boʻladi.
- ▶ Toshma toshish davri 4-5 kungacha uzayadi, toshmalar yirik, koʻp miqdorda kuzatiladi.
- ▶ Asoratlar kam uchraydi.

Tashxislash.

Laboratoriya diagnostikasida virusologik va serologik usullar qoʻllaniladi:

- ▶ Virologik usulda oʻrganish uchun material buruh-halqum surtmasi, koʻz ajralmalari, peshob sanaladi. Biologik materialda virus mavjudligini aniqlash uchun immunoflyuorestsent, faza-kontrast va flyuorestsent mikroskopiya amalga oshiriladi.
- ▶ Serologik usulda agglyutinatsiya reaksiyasini, komplement bogʻlanishi va boshqalarga murojaat qilinadi. Tahlil ikki marta amalga oshiriladi: kasallikning boshida va ikki haftadan soʻng. Antitana titrinining 4 yoki undan ortiq martaga oshishi qizamiqqa tashxis qoʻyish mezonini sifatida xizmat qiladi.

Qizamiq kasalligini davolash:

- ▶ Bugungi kunda aynan paramiksovirusga qarshi kurashga qaratilgan oʻziga xos terapiya mavjud emas.

▶ Davolash alomatlar jiddiyligini kamaytirish, asoratlarning oldini olish yoki tuzatishga asoslangan bo'ladi.

▶ Kasallik boshlangach, dastlabki 7-10 kun davomida yotoq tartibga amal qilish, sut-sabzavotli parhezga rioya etish katta ahamiyatga ega.

▶ Taomnomadan achchiq, yog'li, qovurilgan, oshqozon-ichak traktining shilliq qavatini qo'zg'atish xususiyatiga ega boshqa mahsulotlar chiqarib tashlanadi.

▶ Bemorda isitma, tez-tez hojat chiqarish, ich ketishi inobatga olinsa, yetarli miqdorda suyuqlik ichish muhim o'rin tutadi.

▶ Zarurat tug'ilganda elektrolitli eritmalaridan foydalaniladi.

Profilaktikasi:

▶ Infektsiyani oldini olish uchun 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan kichik bolalarni emlash amalga oshiriladi.

▶ Emlashdan keyin immunitet uzoq vaqt saqlanib turadi, lekin doim ham butun umr davomida emas. Shuning uchun kattalarga postvaktsinal immunitet yo'qolganda revaktsinatsiya ko'rsatiladi.

▶ Bemor bilan aloqa qilganda kasallikning kechishini sezilarli darajada yengillashtiradigan profilaktik chora-tadbir — darhol monovalent vaktsina olishdir.

REFERENCES

1. Ибрагимов Тахир “Можно ли побороть сахарный диабет” Ташкент-2019 148 б.
2. Бутрова С.А. От эпидемии ожирения к эпидемии сахарного диабета // Междунар. эндокринолог. журнал -2013. No 2 (50).
3. Лолтарев С.С., Курцина И.Т. Физиология пищеварения. Учебн. Пособие. М.: “Высшая школа”. 1984. -С. 87-100.
4. Анциферов, М. Б. Синдром диабетической стопы: диагностика, лечение и профилактика.. -Москва: Медицинское информационное агентство, 2013. -304 с.